

INTELLEKTUAL MUVAFFAQIYATLI O`SMIRLARNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xolmirzayev Sherzod Maratovich

Mirzo Ulugbek nomidagi Milliy Universitet

Psixologiya yo'nalishi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlik davrida intellektual muvaffaqiyatga erishish tendensiyalari, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, yoshga doir o'zgarishlar, fikrlash darajasining tafovutga uchrashi kabi masalalar muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: O'smirlik, intellekt, ong, fikrlash, bilim olish, faoliyat.

KIRISH

O'smirlar o'yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan holda ko'proq jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. Maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'qish o'smirlar hayotida katta o'rinni egallaydi. Ular uchun mashg'ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, o'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog'liq. O'qish faoliyati asosida o'smirning o'z-o'zini anglash darajasi kengayadi, boshqa odamlar, atrof olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. Bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar o'smirning, hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog'liq bo'lgan holda bilish jarayonlari rivojlanish xarakteriga o'z ta'sirini ko'rsatadi¹.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi.

Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq og'zaki va yozma mavjud bo'lishi bilan kuchli vosita hisoblanadi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga qulay sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O'smirlik davrida **nutqning** rivojlanishi bir tomondan so'z boyligining oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea va hodisalarning mazmun-mohiyatini anglashlari hisobiga bo'ladi. Bu davrda o'smir til yordamida atrof-borliqni aks ettirish bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi². Aynan o'smirlik davridan boshlab, inson nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi. O'smirni ko'pincha muomalada so'zlarni ishlatish qoidalari – “«Qanday kilib to'g'ri yozish kerak?» «Qanday kilib yaxshiroq

¹ Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibaeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq. 2010. – 111-b.

² M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. “Pedagogika va psixologiya” (ilmiy ommabop seriya). T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2019. 78-b.

aytish mumkin?» , «Nima deyish kerak?», kabi savollar juda qiziqtiradi. O'smirlar maktabdagi o'qituvchilar, kattalar, ota-onalar nutqidagi kamchiliklariga, kitob, gazeta, radio va televidenie diktorlari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat etishga o'rgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalarini buzishlari mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi.

O'smir so'zlarning kelib chiqish tarixiga, ularning aniq mazmuni va mohiyatiga juda qiziqadi. U endi o'z nutqida Yosh bola singari emas, balki katta odamlardek so'zlarni tanlab ishlatishga harakat qiladi. Nutq madaniyatini egallash borasida o'smir uchun o'qituvchi, albatta, namuna bo'lishi shartdir. Aynan maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O'smirlik davrida o'qish malakalari, yozma va monologik nutq jadal rivojlanadi. 5-sinfdan boshlab to 9-sinfgacha o'qish to'g'ri, tez va ifodali bo'lish darajasidan, yoddan ifodali, ta'sirli aytib bera olish darajasigacha ko'tariladi. Monologik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so'zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, og'zaki - [mulohaza yuritish](#), fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha o'zgaradi. Yozma nutq ham rivojlangan holda o'smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo'yicha mustaqil holda insho yoza oladilar. O'smirlarning nutqi to'la tafakkur bilan bog'liq holatida amalga oshiriladi. 5-6 sinflardagi o'quvchilar og'zaki va yozma matn uchun reja tuzib, unga amal qila oladilar. O'zi yozgan fikrni qayta-qayta o'qib, o'z nutqini analiz qilib ko'rishga majbur qiladi. O'quvchi yozib bayon qilayotganida, ko'pincha, bu ishini bir necha marta qayta ko'rib chiqishga, o'zgartirishga, to'ldirishga, qaytadan ishlab chiqishga majbur bo'ladi³.

O'quvchi o'qituvchining topshirig'iga binoan yozma ishlar bajarayotganida o'zining shu ishiga baho berilishini, ammo bu baho ishning faqat mazmuniga qarabgina berilib qolmasdan, balki shu bilan birga, o'z fikrining «qanday til» bilan bayon qilinganiga qarab ham baholanishini oldindan bilib turadi. Mana shu hollarning hammasi bolani o'z nutqini grammatika va logika talablariga muvofik keladigan qilib, ongli ravishda tuzishga majbur etadi. Adabiyot darslari bilan shug'ullanish o'quvchilar nutqining o'sishiga ayniqsa katta ta'sir qiladi. O'quvchilar adabiyot darslarida to'g'ri tuzilgan nutqning eng yaxshi namunalari bilan tanishadilar.

Bolalarning yozma nutqni egallashlari ularning nutqini o'stirishda muhim bosqich bo'ladi. O'quvchi yozma nutqni to'g'ri tushunishni o'rganib oladi, o'z fikrlarini yozma nutq holida bayon qilish va boshqalarga tushuntirishni o'rganadi. Kitob o'qish va ayniqsa o'zidagi fikrlarni yozma tarzda ifodalab, bayon qilib berish tilning grammatika tuzilishini egallashda katta ahamiyatga ega. Yozma bayon qilish vaqtida fikrni to'liq tushuntirib berish zarurligi o'quvchini o'zi yozayotganlarining mazmunigagina diqqat qaratmasdan, balki qanday qilib yozayotganligiga ham e'tibor berishga majbur etadi.

XULOSA VA MUNOZARA

11-12 Yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi.

³ Petrovskiy. A.V. Yosh psixologiya va pedagogik psixologiya. M.2009. 42-b.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibaeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq. 2010. - 111 b.
2. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. "Pedagogika va psixologiya" (ilmiy ommabop seriya). T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2019/1.
3. M.G.Davletshin va boshqalar "Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya" T.TDPU. 2019
4. Petrovskiy. A.V. Yosh psixologiya va pedagogik psixologiya. M.2009
5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. –T. Fan.2013.